

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

3.2020

**научно-методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2020

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-metodik jurnal
Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

	TAHRIR HAY‘ATI:
<p align="center">JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN</p> <p align="center">JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI</p> <p align="center">2020 3(153)</p>	<p>ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana, pedagogika fanlari doktori, professor, ALEUOV O‘serboy, pedagogika fanlari doktori, professor, BOBOJONOV Bozorboy, fizika-matematika fanlari doktori, BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor, HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari nomzodi, IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, JO‘RAYEV Mamatqul, filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor, KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas‘ul kotib), NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash, yuridik fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa‘dulla, falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor, RO‘ZIMBOYEV Safarboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San‘atbek, iqtisod fanlari doktori, professor, SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari), YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor, O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.</p>

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida 2011-yil 23-dekabrda ro‘yxatdan o‘tgan. Guvohnoma №13-020.

бўлган ва ўрта асрларда кенг ривожланган дидактик адабиётга яна эътибор кучайди. Кўп-лаб замонавий Эрон ёзувчилари – А.Халилий, В.Сомоний, М.Байрабий каби адиблар ижодида пандномалар аънаналарини қўллаш ҳаракати сезилди. Уларнинг баъзи асарларида панд, маслаҳатлар, ўғитларни учратиш мумкин, бироқ бу панд-насихатлар очиқ-ойдин тақдим этилмасдан, жуда яширин тусда ифодаланган.

Демак, дидактика – 80-йиллар Эрон адиблари асарларининг деярли муҳим элементи эканлигини кузатиш мумкин. Бироқ унинг очиқдан-очиқ замонавий насрчиликда қўлланишини муваффақиятли ҳодиса деб бўлмайди, балки маърифатпарварлик адабиётига қайтиш деб ҳисоблаш мумкин. У фақатгина ҳаётни реал тасвирлашда, муаллиф томонидан илгари сурилган долзарб ғоя ёки фикрни таъкидлашда бадиий усул вазифасини ўтаган ҳоллардагина ўзини оқлаши мумкин.

Форс адабиётидан ҳеч қачон узилмаган афсона ва эртақ аънанаси ҳам 80-йилларда кенг фойдаланила бошланди. Муҳаммад Миркиёнийнинг “افسانه دو روباه” (“Икки тулки ҳақида эртақ”)¹ ва “دختر عاقل” (“Оқила қиз”)² ҳикоялари эртақсимон ҳикоялар бўлиб, халқ оғзаки ижоди намуналари таъсирида ёзилган. Биринчи ҳикояда бошқалардан ўзини юқори қўйган Тулки ҳар хил ноқулай вазиятларга тушиб панд ейди. Иккинчи асар қахрамони ақлли, доно қиз бўлиб, у донишмандлар ҳақидаги ривоятлар персонажига ўхшайди. Асар ғояси охири жумлада билинади, яъни “Илму маърифатга қалблари очиқ инсонлар қанчалар бахтли!”³. Ҳар икки эртақсимон ҳикоя ниҳоясида панд-насихат бор.

Халқ орасида катта шуҳрат қозонган афсона, ривоят, эртақ шакллари 80-йиллар адиблари томонидан воқеликдаги долзарб муаммоларни кўтариб чиқишда ҳам кенг қўлланиб келинди. Ўз замонасининг муаммолари ҳақида очиқ ёза олмаган адиблар шу шаклларга мурожаат қилишни афзал кўрдилар.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Ислом инқилобидан кейин форс адабиётида ислом қадриятларига қайтиш, мерос бўлиб қолган аънаналарни тиклаш, қадимги ва мумтоз сюжетлар, мажозий ва рамзий образларга мурожаат қилиш, мунозара, ҳажвиёт, дидактик адабиёт жанрларини (панд-насихат, эртақ, зарбулмасал каби) ишлатишга тамойил кучайганлиги кузатилди. XX аср 90-йилларига бориб эса форс адиблари ижодида янги мавзулар, шаклий-услубий изланишлар, воқеликни янгича тасвирлашга интилиш тамойиллари кучайганлиги эътироф этилади.

Xolikov Baxodir Alikulovich
(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)
IKKI PERSONAJ VA IKKI VOQEA

***Annotatsiya.** Maqolada detektiv romanlardagi asosiy sujet liniyasida muhim o‘rin tutgan obrazlarga xos jihatlarning badiiy talqini masalasi Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” va Tohir Malikning “Shaytanat” asarlari misolida tahlil qilinadi.*

***Аннотация.** В статье анализируется вопрос художественной интерпретации своеобразных свойств образов, имеющих важное значение в основных сюжетных линиях детективных романов на примере произведений Марио Пьюзо “Крестный отец” и Тахира Малика “Шайтанат”.*

***Annotation.** The article examines the question of artistic interpretation of the peculiar properties of the images that are important to the storylines of detective novels. Examples are presented from Mario Puzo’s “The Godfather” and Tahir Malik’s “Shaytanat”.*

***Kalit so‘zlar:** adolat, qasos, fabula, ruhiyat, or, nomus, Don Korleone, Asadbek, Amerigo Bonasera, Elchin.*

¹ Современная иранская проза. Антология иранского рассказа. Том II, СПб., 2010, с. 66.

² Ўша жойда. 72-бет.

³ Ўша жойда. 77-бет.

Ключевые слова: справедливость, месть, фабула, душа, честь, совесть, Дон Корлеоне, Асадбек, Америго Бонасера, Элчин.

Key words: justice, revenge, story, soul, honor, conscience, Don Corleone, Asadbek, Amerigo Bonasera, Elchin.

Badiiy asarning jozibasi shundaki, undagi ikkinchi yoki uchinchi darajadagi obrazlarning ham o'z o'rni bo'ladi va ular qaysidir jihati bilan o'quvchining yodida qoladi. Kitobxon ba'zan o'sha obrazlar ustida ham fikr yuritadi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanidagi usta Olim obrazi bir qancha vazifalarni bajaradi. Otabekning Marg'ilonda ishonchli joyda qolishi fojiali ishq tarixiga ishora ekanini oddiy o'quvchi baz'an sezmaydi. Yozuvchi Usta Olim sujetini asar mohiyatiga shu qadar mahorat bilan singdirib yuborganki, beixtiyor "mujassam ishq egasi"ning tarixini o'qigandan so'ng, u sizning yaqin kishingizga aylanib qoladi, uning hamdardiga aylansiz. Uzoq vaqt o'sha voqelik ta'sirida yurasiz.

Amerikalik mashhur yozuvchi Mario Puzoning "Cho'qintirgan ota" va o'zbek yozuvchisi Tohir Malikning "Shaytanat" asarlari kompozitsion qurilmasida muhim o'rin tutuvchi yondash obrazlar mavjud. "Cho'qintirgan ota"dagi dafn idorasi boshlig'i Amerigo Bonasera va "Shaytanat"dagi qo'shiqchi Elchinlar ana shunday obrazlar sirasiga kiradi. Ularning esda qoladigan jihati shuki, ular or-nomus va insoniy g'ururi uchun kurashdek yuksak axloqiy tushunchalarga bog'lab badiiy talqin etiladi.

"Cho'qintirgan ota"dagi Amerigo Bonasera butun umri davomida shubhali ishlardan qochib, Amerika davlati qonunlariga itoat qilib yashagan. Kelib chiqishi sitsiliyalik, Vito Korleone ning ham tengdoshi, ham yurtdoshi bo'lgan bu odam mafiyaning shafqatsiz qonunlaridan juda yaxshi xabardor edi. Shu bois bitta-yu bitta qizini don Korleone ning xotini cho'qintirgan bo'lishiga qaramay, bu xonadonga o'zini begonalardek tutadi, ular bilan bordi-keldi qilmaydi. Don Korleone ikkalasining bir-birini xush ko'rmasligining sabablaridan yana biri – Korleone Amerikada ulg'ayib, shu jamiyatda yashashiga qaramasdan o'z vatanini Sitsiliya deb hisoblaydi, Bonasero esa o'zini butkul Amerikaga bag'ishlagan edi.

Uning maqsadi namunali va zamonaviy amerikalik insonga xos fazilatlarga erishish bo'lgani bois qizining amerikalik yigit bilan uchrashib yurishiga ham qarshilik qilmaydi. O'sha yigit bir bezori sherigi bilan birga qizining nomusiga tegmoqchi bo'lib o'lasiz qilib kaltaklashganidan so'nggina politsiyaga murojaat qiladi. Suddan adolat kutadi. Ammo sud u kutgandek emas, aksincha, zo'ravonlar foydasiga hukm chiqaradi.

Shu damda uning davlat va huquq idoralariga ishonchi poymol bo'ladi va: "Adolat istab don Korleone ning ostonasiga bosh urib borish kerak. Boshqa iloj yo'q", degan qarorga keladi.¹

Don Korleone ning huzuriga kelganda esa: "...sudda anovi maxluqlar uchun adolat yuzaga chiqdi. Menga nisbatan adolatsizlik bo'ldi", deydi.²

Uning bu gapi kitobxon xayolida: "Adolat hamma uchun bir xil bo'lmaydimi? Birov uchun yuzaga chiqqan adolat boshqa kishiga adolatsizlik bo'lishi mumkinmi? Adolatning me'yor qanday bo'ladi?" kabi savollarni uyg'otadi va hozir don Bonasera dan shu savollarni so'raydi deb kutadi. Ammo muallif bu kabi savollarni tizib va ularga batafsil javob berib o'tirmasdan (Agar shunday qilinganida don Korleone mafiya sardorilik maqomidan tushib, yozuvchi Mario Puzoga aylanib qolgan bo'lar edi).

– Sizningcha, adolat yuzaga chiqishi uchun nima qilish kerak? – so'radi don, deya davom etib ketaveradi.³

¹Pyuzo Mario. Cho'qintirgan ota yoki mafiya sardori. T.Adashboyev, M.O'rinboyev tarjimai. T., "Sharq", 2000, 5-bet.

² Shu manba. 28-bet.

³ Shu manba. 29-bet.

Bonasera qiziga zo‘ravonlik qilganlar qoniga bo‘yanib, suyaklar sinib yotganini gazeta sahifalarida ko‘rib, adolat g‘alaba qozondi deb hisoblaydi va donga qo‘ng‘iroq qilib minnatdorchilik izhor etadi.

Bonasera qalban namunali fuqaro bo‘lishni istaydigan, o‘z hayotiy tamoyiliga sodiq odammi yoki har doim o‘z tinchini o‘ylaydigan, kerak bo‘lganda, manfaatini himoya qilish uchun har qanday kuchdan foydalanishni afzal biladigan kishimidi?

Boshiga mushkullik tushguniga qadar u o‘z hayotiy prinsiplariga sodiq yashagandek ko‘rinadi. Ammo qizining kaltaklanishidan boshlab voqealar rivojida uning qiyofasi ochilib boraveradi.

U, haqiqatan, o‘zi yashayotgan jamiyatning namunali fuqarosi bo‘lish prinsipiga sodiq bo‘lganida sudning hukmi chiqqani zahoti o‘zi butun umr hazar qilib kelgan mafiya sardori huzuriga chopqilamasdan yuqori instansiyaga murojaat qilishi yoki o‘sha kezlarda mislsiz ravnaq topib borayotgan, ommaning o‘y-fikrlariga jiddiy ta‘sir o‘tkazishga qodir ommaviy axborot vositalari kuchidan foydalanib, sudning hukmini bekor qilishga erishishi mumkin edi.

Lekin u bu yo‘ldan bormaydi. Buning ikkita sababi bor: birinchisi, u don Korleone oilasini kriminal oilalardan biri sifatida hisoblab, ulardan yiroqroq yurgan bo‘lsa-da, xayolining bir chetida Korleone qudratidan faxrlanishga, zarurat tug‘ilgan onda undan yordam so‘rashga o‘xshash tuyg‘u bo‘lgan; ikkinchisi, o‘sha kunlarda don Korleone to‘y qilib qizini turmushga bera-yotgan edi. Sitsiliyaliklar odati bo‘yicha qiz uzatayotgan ota to‘y kuni hech kimning iltimosini rad etmaydi. U ana shu kunga ulgurmog‘i kerak edi.

Tom Xeygen qo‘ng‘iroq qilib, don Korleonega uning yordami kerakligini aytganda, oradan bir yil o‘tib ketgani bois, uning Cho‘qintirgan otaga bo‘lgan minnatdorchilik tuyg‘usi va qarzdorlik hissi birmuncha xira tortib qolgan edi. U topshiriqqa binoan ishxonasiga kelib donning kelishini kutib o‘tirar ekan, shu vaqtda xotini don Korleone xotini bilan o‘rtoq tutungan kunga ham, uning huzuriga yordam so‘rab borishiga sababchi bo‘lgan qiziga ham, Amerikasiga ham, sevgan ishiga ham – hamma-hammasiga la‘natlar o‘qiydi. Ana shu yerda undagi vatan tuyg‘usi, farzandiga muhabbati, or-nomusi – barcha-barchasi omonat narsalar ekani ko‘zga tashlanadi. U Korleonega yordam qilganidan bu oilaga yovlashib qolgan besh oila vakillari xabar top-sa, uni va oilasini omon qo‘ymasligini biladi. Ammo u va‘dasida turmagan kishi mafiya qonun-lariga binoan qanday jazoga loyiq topilishidan ham xabardor. Shuning uchun hech e‘tiroz bildir-masdan xizmatga hozirligini aytadi.

“Shaytanat” asaridagi qo‘shiqchi Elchinning taqdiri boshqacharoq. Bonasera chorasizlik-dan jinoyat olamiga kirib borgan bo‘lsa, Elchin o‘z xohishi bilan bu olamni tanlaydi. Uch-to‘rtta qo‘shiq aytib, elning og‘ziga tushgach, cho‘ntagi pulga to‘lib, qimor o‘ynashni odat qiladi. Uni bu illatdan mafiya boshlig‘i sanalgan Asadbek qaytarmoqchi bo‘ladi. Ammo uning gapiga kir-may qimorda xotinini boy berib qo‘yadi. Keyin esa xotinining nomusini toptab o‘ldirgani uchun qimorbozlardan o‘ch olishni rejalashtiradi.

Bu ishda unga tajribali jinoyatchi Zelixon o‘z yordamini taklif qiladi. Zelixonni unga yor-dam berishga undagan sabab – nomus masalasi. Lekin Zelixon oriyatli odam bo‘lgani bilan od-diy o‘g‘ri edi. O‘g‘rining ko‘magi ham o‘g‘rincha bo‘ladi. Ular Asadbekning begunoh qizi Zay-nabni o‘g‘irlab, Elchin iffat pardasidagi qizning nomusiga tegadi.

Bir ayolning nomusi toptalgan edi, ikkinchisniki ham toptaldi. Nima o‘zgardi? Adolat qaror toptimi?!

Zelixon bu rejani tuzganda Elchining ikki o‘t orasida qovurilishini hisobga olgan edi. Chunki u birinchi marta begona odamning cho‘ntagiga qo‘l solganini, pulini olgandan so‘ng uyatdan yonib ketay deganini, aslo, unutmaydi.¹

Zelixonning xayolidan o‘tgan bu gaplarda ijtimoiy xavf-xatar bor. Negaki, u birinchi marta begona odamning cho‘ntagiga qo‘l solganda uyatdan yonib ketay degan, keyin ko‘nikib ketgan.

¹ Malik Tohir. “Shaytanat” romani (5-kitob). T., “Sharq”, 2011, 42-bet.

Elchin-chi? U ham birinchi marta bokira qizning nomusiga tegayotganda vijdoni qiynalib, keyin o'rganib ketishi kerakmidi?

Zaynabni Elchin o'g'irlagani tezda fosh bo'lib, u o'zi nomusini toptagan qizga uylanishga majbur bo'ladi. Keyin qaynotasi Asadbekning topshirig'i bilan yigitlari unga Shilimshiqning qo'l-oyog'ini bog'lab olib kelib berishadi. U o'zi orzu qilib yurganidek Shilimshiqdan qasdini oladi. Shundan so'ng u nima ish qiladi? Axir u ko'p odamlarni, Asadbekning o'zini ham o'ldirishi kerak edi-ku!..

Endi Elchinning qasoskorlik faoliyati amalda nimalardan iborat bo'lganiga e'tibor qarataylik. U Zelixonning yordami bilan Asadbekning qizini o'g'irladi. Ammo bu ishi ko'p o'tmay fosh bo'lib qoldi va jonini saqlab qolish maqsadida unga uylanishga majbur bo'ldi. Qasoskorlik nuqtayi nazaridan baholansa, bu ishining natijasi – befoyda. Ikkinchi ishi – Shilimshiqni o'ldirishi. Agar Asadbek yordam qilmaganida u Shilimshiqni hech qachon topa olmasdi, topgan chog'da ham o'zi uning o'ljasiga aylanib qolishi mumkin edi. Demak, bu ishi ham birovlarining qo'li bilan amalga oshdi. Shu voqealardan so'ng uning o'zi mustaqil bir ish qildimi?

Elchinning yashashdan maqsadi, hayotiy a'moli nima edi? Xotini o'limiga sabab bo'lguniga qadar qo'shiq kuylagan va kuylashni hayotining mazmuni hisoblagan. Undan keyin esa qolgan umrini xotini uchun qasd olishga bag'ishlamoqchi bo'ladi. Lekin bu borada ham tayinli natijaga erisha olmaydi. O'zi ashaddiy dushmani deb bilgan oilaning o'zi hayotini barbod qilgan qizining mehr-shafqati, parvarishiga kuni qoladi.

Qasos olishning turlari ko'p. Qamoqdan chiqqan kuniyoq "yaxshi odam"larning birini yoki bir qanchasini so'yib tashlashi yoki uylariga o't qo'yishi mumkin edi. Lekin bu oson yo'l Elchinga ma'qul tushmadi. U nihoyatda uzun, juda xatarli yo'lni tanladi. Elchin "yaxshi odam"lar to'dasiga kirishi shart edi. Shu niyatda qamoqdan chiqqan kuniyoq ularning oyoqlariga bosh ursa olam guliston bo'lar edi. Ammo u bunday qilmadi. Yanada boshqacha yo'l tutdi. Xatar ko'chasi-ning eshigini ochib birinchi qadamini qo'ydi. Endi "yaxshi odam"larning o'zi chorlaydi. Elchin bu chorlov ikki-uch kun orasida bo'lar deb o'ylagan edi. Biroq yangi yil kirishiga yarim soat qolganida Asadbekdan elchi kelishi uning uchun kutilmagan hol bo'ldi.

"Cho'qintirgan ota" romani muallifi bu borada qahramonlarning ruhiy kechinmalarini deyarli bayon etmaydi. Ularning faoliyati bilan ushbu masaladagi o'z talqinini ifodalaydi".

Tohir Malik esa Elchinni uzoqroq yashatish maqsadida uni kitobdan kitobga majburlab sudrab o'tadi. Uzundan-uzun o'ylarini, kechinmalarini bayon qiladi. Yana unga Zaynabni bog'lab qo'yib, Zaynabni "O'tkan kunlar"ga bog'laydi... Natijada asar boshida mustaqil shaxs sifatida paydo bo'lgan Elchin asardan asarga qiyofasini yo'qotib boradi va yozuvchining yetovida yuradigan shaxsi noaniq tirik jonga aylanib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, "Cho'qintirgan ota" va "Shaytanat" asarlarining asosiy sujet liniyasida muhim o'rin tutgan obrazlar bilan birga ana shu kabi fabulalarda uchraydigan obrazlarning ichki tuyg'ulari ham ifodalangan. Ularning qalbidagi maqsad-motiv bilan falsafiy-axloqiy jihatlar o'rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar ishonchli bayon etilgan. Faqat adiblarning uslubidagi farqli jihati, oldinroq aytib o'tilganidek, "Cho'qintirgan ota"da obrazlarning ichki kechinmalari yozuvchi tilidan batafsil bayon etilmaydi, lekin ularning ruhiyati o'quvchi nigohidan pinhon ham qolib ketmaydi. "Shaytanat"da esa deyarli har bir personajning o'ylari, kechinmalari, xotiralari, kelajakdagi rejalari asar muallifi tilidan bayon etilib boriladi.

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Анвар Рейимбергано, Оллаберган Каримов. Ночизикли Шредингер тенгламаси учун қўлланиладиган чекли айирмалар.....	3
Шаимкулов Баходир Аллабердиевич, Махкамов Эркин Мусурманович. Формула Бишопи в матричном полиэдре.....	7
Саидов Аминбой, Раззоқов Алижон, Кошчанова Дурдона. Қаттиқ аралашмаларни яримўтказгич материалларни суяқ фазадан ўстириб олишнинг назарий асослари.....	14

FALSAFA

Абдумаликов Абдулатиф Абиджанович. Жамият ва табиат мувозанатининг бузилиши глобал цивилизация кризиси сифатида.....	20
Камилов Даврон Зафарович. Секуляризация шаклланишининг ижтимоий-тарихий заминлари.....	23
Шарипова Шахзода Хасановна. Постноклассик фан ва табиатшуносликнинг эвристик жиҳатлари.....	28
Арзиматова Иноятхон Мадимаровна, Мирзарахимов Бахтиёр Хошимович. Туризм маданияти феноменининг ижтимоий-фалсафий таҳлили.....	32
Сохибова Лола. Шахс маданий савияси: мазмуни ва мезонлари.....	35
Хамзаев Шавкат. Хожа Аҳмад Яссавий тасаввуфий қарашларида инсонпарварлик ғоялари.....	39
Negmatova Shaxzoda Shuxratovna, Abbasova Maftuna Subhonovna. Sog'lom ma'naviy raqobat – ma'naviy raqobatbardoshlik asosi sifatida.....	43
Парпиев Мухаммаджон. Ўзликни англаш – шахс шаклланишининг муҳим омили.....	45

TILSHUNOSLIK

Сабинова Мухлиса Кадамовна. Медиаматн – медиалингвистиканинг тадқиқ объекти сифатида.....	49
Ихтиёр Аъзамжон. Градация ва интенсификациянинг ўзаро муносабати.....	53
Рахимова Гулфия. Когнитивные и лингвокультурологические особенности цветовой картины мира.....	56

ADABIYOTSHUNOSLIK

Турдиева Ойдин Зафардиновна. Ислом инкилобидан кейинги давр Эрон адабиётида бадиий тафаккур ўзгариши ва унинг асосий тамойиллари.....	61
Xolikov Bahodir Alikulovich. Ikki personaj va ikki voqea.....	64

PEDAGOGIKA

Утапов Тойир Усмонович, Жўракулов Толиб Тохирович. Булутли технологиялар ва ундан информатика фанини ўқитиш жараёнида фойдаланиш.....	68
Davletov Davronbek, Tursunova Zulayho. Geometriyani o'qitishda analogiyadan foydalanish...74	74
Рахимов Володя. Узлуксиз таълим тизимининг бошланғич босқичида жисмоний тарбияни ташкил этиш услубияти.....	79
Matyoqubov Otaxon, Baltayeva Muhabbat. Maktab kimyo laboratoriyasi va unda mashg'ulotlar o'tkazishning o'ziga xosligi.....	83
Рахимова Интизор Рустамовна. Муаммоли ўқитиш – бошланғич адабий таълимда ўқувчилар фаоллиги ва таълим самарадорлигини ошириш воситаси.....	90
Рахимов Момут Матёкубович, Искандаров Нурбек Шарифбоевич. Спорт таълими сифатини оширишда халқаро тажрибаларни назарий ва амалий ташкил қилиш услублари.....	94
Абдуллаева Ирода Акбаровна, Нурмурадова Шахноза Муродуллаевна. Ёш болаларни волейбол спорт турига саралаш ва юқори натижаларга эришиш методлари.....	96
Рахимов Икромжон Комилжонович. Ўқув-тадқиқий масалалар ва уларни таълим жараёнига киритиш методикаси.....	101

Ядгаров Баходир Жуматович, Гылыжова Арзигул Маметмыратовна, Ядгарова Динора Баходировна. Қисқа масофага югурувчи ўсмирларнинг йиллик тайёргарлик машғулотларининг тақсимланиши.....	105
Хақимджанова Мамура. Роль и особенности современных педагогических технологии.....	108
Хайдарова Шохиста Рустамовна. Инновационные технологии в изучении русского языка и литературы.....	111
Artikova Dildora, Ro‘zmetova Maftuna. The Use of Technology in English Language Learning.....	113

ILMIY AXBOROT

Халикулова Хулкар Юлдашевна, Файзуллаева Клара Абдуллаевна. Ўрта асрларда ногиронлиги бўлган шахсларга нисбатан диний-мифологик модель асосидаги муносабат тарихи.....	117
Жўраев Алишер Тўлқинбоевич. Давлат тарзида яшаш – инсоният учун табиий зарурат.....	121
Азизов Тухтамиш Аъзамович. Фавқулодда вазиятларда экологик ҳафсизлик борасидаги давлатлар ўртасидаги сиёсат (Ўзбекистон ва Россия мисолида).....	125
Худойберганова Гулнора. Шарқ мутафаккирлари асарларида диний таълимотларнинг маънавий ва тарбиявий аҳамияти.....	127
Дўсназарова Мавжуда Илямоновна. Шарқ мутафаккирларининг маънавий-ахлоқий ғояларининг ёшлар тарбиясидаги ўрни ва роли.....	130
Жуманиёзова Насиба. Ўзбекистонда таълим тизими шаклланишининг тарихий асослари.....	132
Содиқова Дилфуза Ропижоновна. Талабаларда ижодий муносабатлар тафаккурини шакллантиришда буюк сиймолар фаолиятдан фойдаланиш.....	138
Сиддиқова Шохида. Ўзиники бўлмаган кўчирма гапларнинг коммуникатив-синтактик хусусиятлари.....	142
Давлатова Муҳайё Ҳасановна. Инглиз тилида аспектун маъноларнинг вариативлиги.....	145
Qurbonov Zayniddin. Sintaksis va gipotaktik qurilmalar haqidagi an'anaviy talqinlar.....	148
Умуркулов Бекпўлат. Насрий матнда оғзаки нутқ воситалари.....	151
Аскарров Абдурашид Муроджонович. Саъдуддин Тафтазонийнинг араб тили балоғати ва тилшунослиги ривожига қўшган ҳиссаси.....	155
Абдуқаҳҳоров Сардорбек Акрамжон ўғли. Нутқ маданияти масаласи чет элларда: ўтмиш ва ҳозирги кун.....	159
Эрдонов Зафар Даминович. Зулфия ижодида образлар ва образлилик тамойиллари поэтикаси.....	161
Ёқубова Севинчой. Мустақиллик даври ўзбек шеърятини ўрганишда визуал ёндашув.....	165
Собирова Зебо. Сўз мавжлари.....	168
Нуркулова Рая Рузиевна. Амир Темур – ислом дини ҳомийси.....	171
Nurmatov Jasurbek Quromboy o'g'li. Buyuk xorazmshoh – anushteginilar davlatining harbiy san'ati tarixiga doir ba'zi mulohazalar.....	176
Раззоқова Гузал Қодировна. Хоразм халқ оғзаки ижодида Хоразм халфачилиги санъати тарихи.....	179
Иногамова Нозима Рашодхоновна. Лингвокультурологические особенности перевода художественного произведения с узбекского языка на французский язык.....	182
Ибрагимова Нагина. Языково-стилистические особенности жанров интернета и лингвостилистическая специфика блогерства.....	185
Yakubova Noira. Features of Lexico-semantic Assimilation of English Borrowed Words in Uzbek Language.....	189
Khusanova Munis. Political Discourse and its Specific Features.....	192

“ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**
Musahhihlar: **Tamara Turumova,**
Aybek Kalandarov
Ushbu songa mas’ul **Dilshod G‘ayipov**

Terishga berildi: 20.03.2020
Bosishga ruxsat etildi: 31.03.2020.
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturasi.
Adadi 150. Buyurtma № 20
Hisob-nashriyot tabag‘i 16
Shartli bosma tabag‘i 14,9
UrDU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;
e-mail: ilmsarchashmalari@umail.uz
ilmsarchashmalari@mail.ru
Veb-sayt: www.ilmsarchashmalari.uz
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>